

O'ZBEK XALQ CHOLG'U SOZLARINING TARAQQIYOTI VA ZAMONAVIY USLUBLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17534729>

Xakimov Orifjon Boboramazonovich

*Termiz davlat universiteti Milliy libos va san'at fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası
katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya

Maqolada xalq mumtoz musiqa yo'nalishiga xos bo'lgan cholg'ular guruhları ko'proq kamer xususiyat kasb etishlarini nazarda tutib, joy, sharoit va muhitga asoslanadi. To'liq ansambl tarkibi esa barcha cholg'ularni qamrab oladi, hattoki, g'ijak, dutor, tanbur cholg'ularidan qo'sh holatda foydalanish katta imkoniyatlarni hosil qiladi deb yoritib berilgan.

Kalit so'zlar

g'ijak, dutor, tanbur cholg'ulari, an'anaviy cholg'u, rubob, afg'on rubobi, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijak, chang, qonun, doyra, nog'ora.

Аннотация

В статье рассматривается, что характерные для народной классической музыки инструментальные группы приобретают более камерный характер в зависимости от места, условий и обстановки. Состав полного ансамбля включает все инструменты, и даже использование гиджака, дутара и танбура в парной позиции создаёт большие возможности.

Ключевые слова

гиджак, дутар, инструменты танбур, традиционные инструменты, рубаб, афганский рубаб, уд, флейта, труба, кошнай, карнай, гиджак, чанг, канон, дойра, нагора.

Abstract

The article discusses how instrumental groups characteristic of folk classical music acquire a more intimate character depending on the location, conditions, and setting. A full ensemble includes all instruments, and even the use of the gijak, dutar, and tanbur in paired positions creates significant possibilities.

Key words

gijak, dutar, tanbur instruments, traditional instruments, rubab, Afghan rubab, oud, flute, trumpet, koshnay, karnay, gijak, chang, kanon, doira, nagora.

Kirish (Adabiyotlar sharhi). O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruh XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashga, ya'ni qayta ishlangan - rekonstruksiya qilingan cholg'ular kiradi.

An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, afg'on rubobi, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doyra, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'a, safoil kiradi.

An'anaviy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlar, sharoitlar va ijro uslublar yuzaga kelgan. Ko'p asrlik ijrochilik amaliyoti esa - xalq va an'anaviy cholg'ularni guruh bo'lib ijro etilishini ham taqozo etgan. Shunga binoan cholg'ular sozandalar tomonidan bir-birlariga mos o'z turlari va ovoz imkoniyatlari doirasida guruhliy tarkiblar tuzilib amaliyotda qo'llanilib kelingan.

Karnay, surnay, nog'ora va doyra tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan. Ijroda keng ko'lamli va katta ovoz imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida barcha cholg'ular yig'indisidan katta cholg'ular ansambli tashkil etilgan. O'zbek madaniy merosi musiqiy cholg'ularga boy va ularning har biri uzoq o'tmish, tarkibiy rivojlanish va texnikaviy takomillashish jarayonidan o'tganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ijro mezonlariga ko'ra o'zbek xalq cholg'ulari ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga barcha an'anaviy xalq cholg'ulari kiradi. Ikkinchi guruh XX asr madaniy rivoji bilan bog'liq bo'lib takomillashgan, ya'ni qayta ishlangan (rekonstruksiya qilingan) cholg'ular kiradi.

Xalq mumtoz musiqa yo'nalishiga xos bo'lgan cholg'ular guruhlari ko'proq kamer xususiyat kasb etishlarini nazarda tutib, joy, sharoit va muhitga asoslanadi. To'liq ansambl tarkibi esa barcha cholg'ularni qamrab oladi, hattoki, g'ijjak, dutor, tanbur cholg'ularidan qo'sh holatda foydalanish katta imkoniyatlarni hosil qiladi. Bunda ansambl zabardast ovoz imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kompozitorlik ijodiyoti ijrochiligi yo'nalishi ham zamonaviy uslublar asosida bir qator cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi. Musiqa ijodiyotidan o'rin olgan janrlar negizida cholg'ularning tarkibiy guruhlari tashkil etilib, ijro etiladi. Unga

ko'ra cholg'u duetidan toki xalq cholg'u-asboblari orkestri bo'lgan cholg'u asboblari tarkibi tuzilgan va ijrochilik amaliyotida keng qo'llanilib kelinadi. Qayd etish lozimki orkestrning to'laqonli ovoz imkoniyatlariga ega bo'lish yo'lida Yevropa cholg'ularidan ham keng foydalaniladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. "O'zbek xalq musiqa cholg'ular" nomli qo'llanmasida va "Xalq cholg'ularida o'qitish uslubi" uslubiy qo'llanmalarida milliy cholg'ular to'g'risida va ularning turlari haqida, o'quvchi yoshlarga milliy xalq cholg'ularini qanday o'rgatish metodlari yoritib berilgan. K.Olimboyeva, T.Yo'ldoshboyeva, M.Ahmedov, T.Mirzayevlarning "O'zbekiston xalq sozandolari" nomli to'plamida elimizga mashxur va ma'lum bo'lgan taniqli mohir sozandalar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamovalarning hammuallifligidagi "O'zbek musiqasi tarixi" deb nomlanuvchi adabiyotda o'zbek milliy musiqasining tarixi, uning mazmun va mohiyati to'g'risida ko'plab ma'lumotlar yoritib berilgan bo'lib ushbu adabiyot ustida va o'zbek milliy musiqasi tarixi ustida qator izlanishlar olib borganlar. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamovalar o'z tadqiqotlarida o'zbek milliy musiqasi tarixini yoritibgina qolmay uning qay tarzda rivojlanib bizgacha yetib kelishi to'g'risidagi ma'lumotlarni va mazmun mohiyatini to'laqonli ravishta yoritib berganlar.

Natijalar va munozara. O'zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg'ularining 30 tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg'ular XX asrning 40-yillaridan keyin professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg'ular bo'lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko'p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo'ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo'lgan milliy musiqiy cholg'ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko'rinishga keltirish asosida yaratilgan bo'lib, o'sha cholg'u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijada nay, chang, rubob, dutor, g'ijjak cholg'ularining oilasi dunyoga keldi. An'anaviy xalq cholg'ulari tarkibidan joy olgan cholg'u sozlar: tanbur, dutor, sato, rubob, ud, nay, surnay, qo'shnay, karnay, g'ijjak, chang, qonun, doira, nog'ora. Xalq ijodiyotida qo'llaniladigan sozlarga changqo'biz, sibizg'i, safoil kiradi. Qayta ishlangan cholg'ular asboblari -rubob, g'ijjak, dutor va chang sozlarinig musiqaning soprano, alt, tenor, bas ovozlar mezonlariga ko'ra qayta ishlangan namunalari kiradi.¹ An'anaviy cholg'u ijrochiligi azaldan xalq ijro amaliyotida shakllanib, turli ko'rinish va tarkiblar asosida foydalanish an'ana bo'lib kelgan. Avvalo an'anaviy cholg'ularning har biri yuqori professional darajadagi individuallik xususiyatiga ega. Xalq ijrochilik amaliyotida shunga mos ijro imkoniyatlar, sharoitlar va ijro uslublari yuzaga kelgan. Karnay, surnay, nog'ora va

doira tarkibidagi damli va urma cholg'ular guruhi qadimdan ijro amaliyotida shakllanib, xalqimizning barcha ommaviy tadbirlarining faol ishtirokchisiga aylangan. An'anaviy cholg'u sozlar ansambllari esa o'z xususiyatlaridan kelib chiqib qo'llanilgan. Ijroda keng ko'lamli va katta ovoz imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida barcha cholg'ular yig'indisidan katta cholg'ular ansambli tashkil etilgan.

Hozirgi davrga kelib o'zbek musiqa ijrochiligini uchta yirik yo'nalishga ajratish mumkin. Xalq folklor musiqa yo'nalishi, xalq mumtoz musiqa yo'nalishi va kompozitorlik musiqa ijodiyoti yo'nalishi. Xalq folklor yo'nalishida ommaviylik xususiyatga ega bo'lgan, ovoz va texnik jihatlari mos bo'lgan cholg'ulardan ko'proq foydalaniladi. Masalan: rubob, nay, g'ijak, chang va doira cholg'u asboblari. Qayd etish joizki xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o'ziga xos bo'ladi.

Shuning uchun cholg'ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta oladiganlik xususiyat kasb etishlari taqozo etiladi. Kompozitorlik ijodiyoti ijrochiligi yo'nalishi ham zamonaviy uslublar asosida bir qator cholg'ular guruhini o'z ichiga oladi.

Karnay - o'zbek damli musiqiy cholg'ularining eng kattasi - 2 metrdan oshiqroq va eng kuchli tovush tembriga ega desak, xato bo'lmaydi. Uning hajmi kattaligini inobatga olgan holda, og'ir bo'lmasligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo'lakni bir-biriga qo'shib kiydirish orqali yig'iladigan ko'rinishda tayyorlanadi. Bu cholg'udan surnay, doyra, nog'ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo'lgan ansambllarda foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnay bayramlarda, tantanali marosimlarda, surnay, nog'ora va doyraga qo'shib chalinadi. Karnay ijrosida asosiy tovushdan sof kvinta yoki kichik septima intervali eshitiladi.

Chang - qadimiy musiqiy cholg'u hisoblansada, bizning hududimizga XX asrning boshlarida kirib kelgani haqida ma'lumotlar bor. Chang - O'rta Osiyo xalqlarining urma-torli cholg'usidir. Changda unisonga sozlangan uchtdan tor bo'lib, ovoz hajmi kichik oktava sol dan uchinchi oktavada sol diyez ga qadar. Ilgari ijrochilik amaliyotida qo'llanilgan changning tovushqatori diatonik ladda bo'lgan. Notalar skripka kalitida yoziladi. Changning ustki qismi rezinka bilan qoplangan to'qmoqcha kabi maxsus ingichka ikkita cho'plar bilan urib chalinadi.

Chang yakka holda va cholg'u jamoalari tarkibida ishlatiladi. Faxriddin Sodiqov, Fozil Xarratov, Ahmadjon Odilov, Rustam Ne'matov, Fazilat Shukurova, Tohir Sobirov, Tilash Xo'jamberdiyev kabi sozandalarning mazkur musiqiy cholg'uni targ'ib qilishdagi va ommalashtirishdagi xizmatlari beqiyosdir.

Qashqar rubobining asli kelib chiqishi Sharqiy Turkiston - hozirgi Xitoyning Uyg'ur Avtonom Okrugining Qashqar degan joy nomi bilan bog'liq bo'lsada, o'zbek milliy cholg'ulari ichida eng keng tarqalgan va ommalashgan cholg'u hisoblanadi. Musiqani endigina o'zlashtirayotganlarning 50 foizidan ortig'i ana shu cholg'udan foydalanishi ma'lum. qashqar rubobi juda jarangdor va yoqimli sadoga ega bo'lib, nisbatan tez o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan cholg'ular qatoriga kiradi.

Xulosa va tavsiyalar. Xalq folklor yo'nalishida ommaviylik xususiyatga ega bo'lgan, ovoz va texnik jihatlari mos bo'lgan cholg'ulardan ko'proq foydalaniladi. Masalan: rubob, afg'on rubobi, nay, g'ijjak, chang va doyra cholg'u asboblari. Qayd etish joizki xalq folklor musiqa ijrochiligida ijro sharoiti, joyi ham o'ziga xos bo'ladi. Shuning uchun cholg'ular ham tez moslasha oladigan va har qanday sharoitda ijro eta oladiganlik xususiyat kasb etishlari taqozo etiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zoirov Zarif Rashitovich "O'zbek xalq milliy-an'anaviy cholg'ularida o'qitish metodikasi" -Termiz - 2019. a. Bahrom Madrimov "O'zbek musiqa tarixi" - Toshkent 2015
2. A.Jabborov, S.Begmatov, M.Azamova "O'zbek musiqasi tarixi" - Toshkent, "Fan va texnologiya" 2018.
3. N.Yuldasheva, N.Raxmatova "O'zbek musiqa adabiyoti" - Toshkent «Iqtisodmoliya» - 2016
4. Oydin Abdullayeva "Cholg'ushunoslik" «Musiqa» nashriyoti Toshkent - 2018.
5. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" - Davlat milliy nashriyoti - Toshkent - 2003.
6. Qosimov R. «An'anaviy tanbur ijrochiligi» Toshkent., «Cho'lpon», 2002-yil.
7. O.Nazarov Qashqar rubobida o'qitish uslubiyoti. Toshkent., 2008-yil.
8. A.Lutfullayev. O'zbek xalq cholg'ularida ijrochilik san'ati tarixi. Toshkent.,2010-yil.
9. A.Tashmatova. Ijrochilik san'ati tarixi. Toshkent.,2017-yil.
10. Sh.Rahimov, A.Lutfullayev Cholg'ushunoslik. Toshkent., "Musiqa" 2010-yil.